



ODIL YOQUBOV HIKOYALARIDA BOLA OBRAZI

Muazzam Zokirjonova

NamDu 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali O. Yoqubov asarlarida bola ruhiyati talqinlari, qahramon ruhiyatini ochib berishdagi ahamiyati psixologik tasvir nuqtai nazaridan tahlil, bolaning idroki va ko'nglida konfliktlar yuzaga keltirgan tasvirlarning yaqqol guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: nekbin tuyg'ular, Muzqaymoq, mehmonlar, maktab, Stalin,

Abstract: Through this article we will clearly witness the interpretations of the child's psyche, the analysis from the point of view of the psychological image of the significance in revealing the hero's psyche, the images that caused conflicts in the child's perception and heart in the woks of O.Yakubov.

Key words: Optimistic feelings, ice cream, guests, school, Stalin,

Keyingi yillarda adabiyotshunoslikda "Bola ruhiyati" masalasi asosiy dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bu mavzuga qiziqishning ortib borishi tasodifiy emas, albatta. Bunga sabab mavzuga oid materiallarning keng tarmoqda ekanligi, bola obrazi orqali insonlardagi kamchiliklarning yaqqol namoyon bo'lishidadir. Odatda bola obrazi asarlarda yorqin, rang-barang va quvnoqroq xarakterli tarzda yoritila-di. Zero, bolalik beg'ubor va jiddiy voqealarga beg'amroq qaraydigan davr hisoblanadi. Yozuvchi Tohir Malik ta'rificha: "Qilayotgan ishingizga o'zingiz to'g'ri baho bera olganingizdan boshlab bolaligingiz bilan vidolashasiz.



Ha, ha, aynan vidolashasiz. Bolalik sizning xotirangizga ko‘chadi. Vaqti kelib, bu xotira vijdon azobiga soladi, vaqti kelib nimalarnidir qo‘msashga majbur qiladi”.¹

XX asrga kelib ushbu mavzu yuzasidan rus adabiyotshunosligida ilk tadqiqotlar olib borildi. Xususan, V.Belinskiy, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy kabi ijodkorlar shular jumlasidandir. O‘zbek bolalar adabiyotida esa ijod qilgan ko‘plab yozuvchi-larning asarlarida bola obrazi asosiy o‘rin egallaydi va kichik qahramonlar orqali ijtimoiy vaziyatlar murakkablikdan chekinilgan holda ochib beriladi.

O‘zbek adabiyotida ilk bola obrazi bilan kirgan realistik hikoya adib Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi bilan boshlansa, G‘afur G‘ulom “Shum bola” qissasi orqali bolalar obrazining xususiyatlarini yana boyitdi. Shuningdek, bu yo‘nalishda qalam tebratgan istiqlol davri yozuvchisi sifatida o‘rganiladigan yozuvchi Odil Yoqubovning “Muzqaymoq”, “Yaxshilik” hikoyalaridagi bola obrazi mojarolar av-tobiografik xususiyati bilan ajralib turadi.

Hikoyadagi obraz yaratish mahorati va voqealar orasidagi izchillik natijasida yozuvchi bola obrazi orqali ijtimoiy davrdagi illatlarni, sho‘ro tuzumining aholiga ta’sirini fosh etib bergan va bunday jarayonlar albatta bola ongiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. “Muzqaymoq” hikoyasi qahramoni endigina 10 yoshga kirgan bir murg‘ak bo‘lib, atrofida sodir bo‘layotgan voqealarni ana shu sodda qalbi orqali anglashga harakat qiladi. Asar boshlanishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “O‘sha oilamiz boshiga og‘ir kulfat tushgan kuni, men, o‘n yashar bola, nimadandir ko‘ng-lim g‘ash, uyimiz ro‘parasidagi paxsa devorga chiqib go‘yo otga minib o‘tirardim”. Ushbu kichik tasvirdan ko‘rinadiki, bola hali devorni ot deb tasavvur etib va shun-chaki ko‘ngli g‘ash bola edi, xolos. Ammo asarda bola xarakteridagi o‘zgaruv-chanlik xislati otasining mehmonlari uyga kelganida onasining “mehmon” so‘zidan yosh bolalarcha quvonib, o‘zgacha shodlik bilan otasini chaqirgani yugurgani, tabiatan o‘ta qattiqqo‘l otasining muzqaymoq olib berishi asar qahramonini bolalarcha hayajonlantiradi. Ammo hali

¹ Tohir Malik – “Alvido, bolalik” qissasidan parcha. (“Kecha qayerda edik yoxud har ehtimolga qarshi topilgan bahonalar haqida hikoya” qismidan olindi).



bola paytidanoq otasining qoʻrquv va xavotirda yashaganini guvohi boʻlgan yosh yozuvchi oʻzi kutmagan voqealarga yaʼni shoʻro siyosatining fojeasini oʻz oilasida yuz berganini koʻradi. “ Men oʻsha paytlar mamlakatimizda va hatto shahrimizda nima boʻlayotganidan bexabar edim, albatta, shu bois oyimlar bilan opamlarning harbiylarni koʻrishlari bilanoq faryod chekib, ichkariga otilishlarini sababini anglamadim. Ammo ular mudhish maqsad bilan kelganinini aql bilan boʻlmasa-da, yurak bilan his etgandim ”.² Ana shu hissiyotlari bilan bolalarcha qahramonlik koʻrsatgisi kelib Kapitan ocholmagan shkaftortmasini mohirlik bilan ochib, oʻziga bildirilgan maqtovdan faxrlanib ketadi. Bu ham boʻlsa bola qalbi bilan soddaligidan deb tushuniladi. Chunki kichik yoshdagi bolalarning xayolot olami tizgini koʻklarda parvoz qilguvchi boʻladi. Uning koʻziga dunyo mutlaqo nomalum bir narsa boʻlib koʻrinadi, ammo bola uni bilishga intiladi. Had-hudud bilmas xayolot qanotida uzoq oʻlkalarga sayohat qiladilar gʻayritabiiy sarguzashtlarni boshdan kechiradilar, aql bovar qilmas ishlarni amalga oshiradilar. Yozuvchi bolalardagi shunday holatlarni anglab, his etgan holda uning xarakterini yaratishga harakat qiladi, yaʼni bola hayotidagi xarakterli voqea – hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda tasvirlaydi. Asarni oʻqish jarayonida biz uchun muhim boʻlgan bola ruhiyatiga aloqador nekin tuygʻularni, jarayonlarni bir qarashda anglashimiz qiyin. Tahlilga olingan ushbu asar nafaqat pedagogika va psixologiya balki boshqa masalalar doirasida ham mushohadaga chorlaydi. Bunday asarlarning mazmuni sodda, aniq boʻlgani sabab bolalarni oʻrab turgan hayot haqida tasavvurlarining kengayishiga yordam beradi.

Har bir ijodkorning boshqalardan ajratib turadigan oʻz uslubi mavjud boʻlib, Odil Yoqubovning oʻziga xosligi haqida tanqidchi U.Normatov quydagi fikrni bildiradi: “Adabiyotshunoslikda biografik metod degan ilmiy maktab bor. Bu maktab tarafdorlari ijodkor asarlarida muallif biografiyasi, shaxsiyati bilan aloqador jihatlarni tadqiq etadi. Afsus, bu ilmiy maktab bizda hali toʻla toʻlis shakllangan emas Odil Yoqubov ijodi ayni shu

² asardan



muammoni tekshirish uchun g'oyat boy material beradi ".³ Xuddi shunday Odil Yoqubov ijodi jonliligi bilan doim o'z kitobxonlarini topgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tohir Malik – “Alvido, bolalik” qissasidan parcha. (“ Kecha qayerda edik yoxud har ehtimolga qarshi topilgan bahonalar haqida hikoya” qismidan olindi).
2. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q.Djalilov, - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022-2024 b.
3. Umarali Normatov. Ijod sehri. “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompani-yasi. Toshkent- 2007. 105- bet.

³ Umarali Normatov. Ijod sehri. “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent- 2007. 105- bet.